

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

### **Kichik yoshdagi til o'rganuvchilar(o'quvchilar)ga xorijiy tilni interfaol usullarda o'rgatish.**

*Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni o'rgatish metodikasi.*

***Meliqulova Dilfuza***

*Samarqand Davlat Chet tillar Instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til:ingliz tili 2-bosqich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishning intensiv usullari, ta'lim muassasalarida xorijiy tilni kichik yoshdagi bolalarga innovatsion usullarda n foydalanish haqida malumotlar berilgan. Xususan ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy bir qancha metod va uslublardan pedagogning asossiy vazifalaridan biridir.

**Kalit so'zlar:** xorijiy til, metod, zamonaviy metodlar, innovatsion usullar.

“...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin...”

Masaru Ibuka

Ta'lim tarbiya jarayoni o'z ichiga didaktik, lingvistik, metodik, psixologik va boshqa turlarni o'z ichiga oladi. Bulardan, ko'pchilik qismi barcha fanlarni o'rganish uchun qulay tamoyil bo'ladi. Ammo, ba'zi fanlar esa aniq bir yoshdagi o'quvchilar uchun ayrim tamoyillarji o'z ichiga oladi xolos. Masalan, boshlang'ich sinf yoshidagu bolalarga chrt tillarini o'rgatishda xorijiy til grammatikasini o'rgatib boshlash hech qanday samata bermasligi mumkin. Chunki, o'ziga begona bo'lган tilning grammatikasini o'rganish kichik yoshdagi o'rganuvchilar uchun biroz qiyin va shu bilan birgalikda zerikarli bo'ladi. Sababi, boshlang'ich sinflarda o'zbek tili grammatikasi to'lliq o'tib borilmaydi, chunki bola o'yin qaroq, turli tumanlikka o'ch, rang-baranglikni sevuvchi bo'lganligi uchun ularga tezda ilmiy yo'l bilan dars o'tish bir muncha qiyin va ular uchun tushunarsiz hisoblanadi, shu sababli o'z ona tilisi grammatikasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasagan o'rganuvchi chet tili grammatikasini o'rganishni boshlasa u yerda gap nima haqida ketayotganligini

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

tushuna olmaydi.

Ma'lumki,maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar uchun o'qish,yozish orqali o'rganishdan ko'ra ko'proq ko'rish eshitish,turli xil o'yinlar o'ynash,og'zaki takrorlash,orqali o'rganish ko'proq samarali.

Ko'rgazmali vositalar yordamida o'qitish uslubi. Ushbu tamoyilga asoslangan xolda chet tillari o'qitsa,o'rganilishi kerak bo'lgan har qanday ma'lumot bolaning ongiga tezroq ta'sir qilishi hamda xotirasiga maxkam joylashishi ko'zda tutiladi. Masalan,sinf devorlariga,partalariga,doskaga,bolaning ko'ziga tez-tez tashlanib turadigan har qanday joyga o'rganilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni yopishtirib chiqish,bolaning har ko'rganda avtomatik tarzda qarashi va o'rganishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari turli xil filmlar yoki multfilmlar ham bola e'tiborini tez jalg qiladi. Bunsa bolalar qahramonlar aytayotgan so'zlar ma'nosini tushunishmasada,ularning harakatlaridan buni anglab olishlari oson.

Audio lingvistik uslub. Bunda bolalar turli xil qo'shiqlar,she'rlar,multfilmlarni eshitish va ular aytgan so'zlar va gaplarni takrorlash orqali chet tillarini oson o'rganishadi. Kichik yoshdagi o'rganuvchilar o'zlari o'rganayotgan narsalarning ma'nosiga emas,uning qay darajada qiziqarli ta'sir qilayotganligiga e'tibor berishadi va shu orqali eslab qolishadi. Shu sababli ham bolaning yoshi va ruhiyatiga mos bo'lgan qiziqarli ohang,harakat,hazilmutoyiba,mashqlar orqali boyitilgan har qanday qo'shiq,she'r, audio,film,raqslar bola ongiga muxrlanadi.

Rag'batlantirish orqali o'rgatish. Har qanday tanqid,bosim,past baholash va shukar kabi negativ xarakterga ega bo'lgan yondashuvlar kichik yoshdagi bolalar psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda bolaning fanga bo'lgan qiziqishi bilan birga o'ziga bo'lgan ishonchini ham so'ndirib qo'yadi. Bolalar ko'proq maqtovlar eshitish hamda rag'batlantirish orqali fanga qiziqishi ortadi. Shu sababli past natijaga erishgan bolani ham ma'lum miqdorda taqdirlash,oz bo'lsada qilgan harakati uchun rag'batlantirish joiz. Shunda bola o'xini yanada yaxshisiga loyiq ekanligiga ishongan holda ko'proq harakat qiladi.

Bundan tashqari,bolaga erkinlik berish,ya'ni dars vaqtida faqat bir xil

xolatda, hech qayerga qimirlamasdan otirishga majburlash emas, aksincha unga o'ziga qulay tarzda o'tirib olishiga, charchaganda dam olishiga, erkin harakatlana olishiga ruxsat berish joiz. Muntazam bosim ostida bo'limgan, o'z erkinligiga ega bo'lgan bolada o'ziga bo'lgan ishonch hamda iroda ortadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, har doim bir xil yozdirish va o'qitish orqali o'rgatish bolalarni zeriktirib hamda charchatib qo'yishi mumkin. Shu bois, ushbu tamoyillarni harakatlar, eshitish, ko'rish, rag'batlantirish orqali o'rgatish bilan almashtirish samarali foyda beradi..

### **Foydalaniqan adabiyotlar.**

1. S. Lelyux, T. Sidorchuk "Maktabgacha ta'lim" jurnalining bosh sahifasi // Mundarija No 19/2002 – Samara – Ulyanovsk, 2002 11c
  2. Bukhovets Irina Andreevna "Ekaterina Pashkovaning pedagogik jamoasi – PEDSOVET.SU" – Nijniy Novgorod, st. Raevskiy 15-45c, 2007 yil
  3. Azimov, E. G. Uslubiy atama va tushunchalarning yangi lug'ati (tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti). — M.: IKAR, 2009. — 120 b.
  4. Prokofieva, V. L. Og'zaki chet tilidagi muloqotni o'rgatishda kommunikativ motivatsiyani yaratish vositasi sifatida ko'rinish // Maktabda chet tillari. – 1990. – № 5. – 136 b.
  5. Zhalolov, J.J. Chettil o'qitish metodologiyasi. Chet tillar oliy ukuv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Okituvchi, 1996. – 368 b.
  6. Koshimov, U; Yokubov, I. Inglis tili o'kitish usullari. – T.: Shark nashriyot-matbaa aktsiadorlik kompaniyasi Bosh taxiriyat, 2003. – 56 b
  7. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases 2019
  8. Zubaydova Nilufar Nimatillaeva, The importance of teaching vocabulary 2019
9. Zubaydova Nilufar Nigmatullaeva. The Teaching English for specific purposes.

2019